

**BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA  
ZAMONAVIY YONDASHUV**

*Xalnazarova Leyla*

*Karimboyeva Zebo*

*Dosumbetova Nodira*

*NDPI ELLikqala pedagogima fakulteti*

*Boshlang'ich talim va O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash pedagogik faoliyat, dars.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak deb ta'kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o'z nutqlarida. Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm- fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib etishishiga zamin yarata olmaymiz. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining deyarli barchasi yangitdan qurilgan va kapital ta'mirlangan qariyb 10 mingta maktab zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan jihozlandi. Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarida 1074 ta Axborot- resurs markazlari tashkil qilinib, zarur texnik jihozlar bilan to'liq ta'minlandi. Maktablar Axborot-resurs markazlarining kitob fondi 7.960.840 nusxani tashkil etadi. Bunga qo'shimcha ravishda Axborot-resurs markazlarida 95.645 dona elektron nashrlar mavjud. Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib boriladi. Pedagogika – bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, "payne" bola, "agogeyn" – etaklamok degan ma'noni bildiradi. topgan. Pedagogiya bu-oldindan loyhalangan ma'lum bir pedagogik tizimni amliyotga joriy qilish. Pedagogik tizim bu

shaxsga maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan metodlar, vositalar va jarayonlar yig'indisi. Maqsadimiz o'quvchilarni oldindan bilimni mukammalashtirib uni samarali va sifatli bilimga ega bo'lishga ta'sir berish. Metod atamasi yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, yo'l, haqiqatga intilish, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma'nosini anglatadi.

O'qituvchi metod tanlashda:

Birinchidan, o'qitish usuli, o'qish faoliyati usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga;

Ikkinchidan, maqsadlarga erishishda o'qituvchi o'quvchi hamkorligi o'z aksini topishi shart ekanligiga;

Uchinchidan o'quvchilarning yosh, individual psixologik xususiyatiga;

To'rtinchidan, mavzularning izchilligi va tizimlilikini hisobga olganlikka e'tibor beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablar pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o'z aksini topgan.

Bular: "Aqliy Hujum", "YAAlpi fikriy Hujum", "Qarorlar shajarasi", "Zig-zag", "6x6x6", "Qora quti", "Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim", "Klaster", "SHlyapa", va xokozolar.

Ta'lim jarayoniga bu metodlarni qo'llash:

o'quvchining muayyan nazariy bilimlar puxta o'zlashtirishga;

vaqtning tejalishiga;

har bir o'quvchining faollikka undalishiga;

o'quvchining erkin va mustaqil fikrlash layoqatini shakllanishiga;

o'quvchida o'zgalarning fikrini tinglay olish ko'nikmasining hosil bo'lishiga;

o'quvchining o'z fikrini himoya qila olishiga;

o'quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko'nikmasini shakllanishiga;

o'quvchining qiziqishi (mativi) ortishiga;

o'quvchining izlanuvchanlikka ijodkorlikka chorchashiga;

Shunday qilib ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo'lib, bunda boshqaruv maqsadi ta'limning ob'ekti va sub'ekti sifatida o'quvchiga yo'naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi. Ta'lim tizimi – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui. Respublika uzluksiz ta'lim tizimi– shaxsga ta'lim berish, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilib, o'zaro mantiqiy izchillik asosida, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib boradigan bir-biri bilan bog'langan bosqichlarni ifodalovchi tarkibiy va tashkiliy elementlar majmuasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim -6-7 va 10-11 yoshli bolalarda umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirish

maqsadini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Mahorat-shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohasidagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning nazariy darajasidir. Mahorat – san'at, Mahorat izlanish, Mahorat – pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish, mahorat - o'qituvchining o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va o'z-o'zini tarbiyalashdir. Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori, biri o'rta quyi darajadan ibortdir. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'z mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Ibn Sino ta'lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim deb hisoblaydi: o'qitishda oddiydan murakkabga qarab borish; bolaning qobiliyat va mayllarini e'tiborga olish; bolaga kuchi etadigan mashqlarni bajartirish; ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi. Bolaga ta'lim va tarbiya berishi uchun saxovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo'lmog'i lozim.

«Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi»da boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi ta'riflanadi: «...eng muhimi balalarda o'qish, o'rganishga chinakkam xavas, ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod xosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi.» va yana shu konsepsiyadan boshlang'ich sinf o'qituvchisi fazilatlariga qo'shimcha keltiriladi. O'qituvchi: «...O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixorli bo'lishi;

bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalay olishi;

nutqiy ravon, xalq tili boyligi ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi» zarur.

#### **Xulosa:**

Pedagogik jarayonning mohiyati - o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.[1]
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent 2006[2]
3. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005.[3]
4. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. (o'quv qo'llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.[4]